

# NAVOIY VILOYATI ERKIN IQTISODIY ZONASINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Muxammedova Nazokat Jurayevna**

Navoiy davlat pedagogika instituti, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida katta o`qituvchisi, PhD

**Kuvvatova Dildora Baxtiyorovna**

Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

**Nurova Mohinur Akbarovna**

Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

**Ismoilov Umidjon Boymirza o`g`li**

Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

**Annotatsiya.** Maqola Navoiy viloyatida barpo etilgan Erkin iqtisodiy zonaga bag`ishlangan bo`lib, uning iqtisodiy samaradorligi ochib berilgan. Shu bilan birga ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va qiymatiga alohida e`tibor qaratilgan. Navoiy Erkin iqtisodiy zonasi ishlab chiqargan mahsulotlarning Jahon bozoridagi mavqei va eksport salohiyati atroflicha yoritilgan. Shuningdek uning hududiy keng xususiyatlariga ahamiyat berilgan.

**Kalit so`zlar.** Erkin iqtisodiy zona, eksport, import, sanoat mahsuloti, qo`shma korxonalar

## SPECIFIC FEATURES OF NAVOI REGION FREE ECONOMIC ZONE

**Muhammedova Nazokat Jurayevna**

Navoi State Pedagogical Institute, Geography and basics of economic knowledge Senior Lecturer of the Department, PhD

**Kuvvatova Dildora Bakhtiyorovna**

Navoi State Pedagogical Institute, magist

**Nurova Mohinur Akbarovna**

Navoi State Pedagogical Institute, magist

**Ismoilov Umidjon Boymirza o`g`li**

Navoi State Pedagogical Institute, magist

**Annotation.** The article is devoted to the Free Economic Zone in Navoi region, which reveals its economic efficiency. At the same time, special attention is paid to the volume and value of products. The position of the products of the Navoi Free Economic Zone on the world market and the export potential are covered in detail. Attention is also paid to its wide regional features.

**Keywords.** Free economic zone, export, import, industrial products, joint ventures

Navoiy viloyati tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari qulay bo`lgan hudud hisoblanib, sanoat jadal rivojlanib borayotgan mintaqalar sanaladi. Ma`lumotlarga ko`ra hudud aholisi 2021 yilda 1,01 ming kishidan oshgan. Aholining 440,9 ming kishiga yaqini mehnatga bandlar tashkil etib, u 48,89 % urbanizatsiya darajasiga ega. Aholining 171,1 foizi ayollar, 173,7 foizi erkaklarni tashkil etadi.

Respublikamizda ilk bor 2008 yil 2-dekabrda Erkin iqtisodiy zonaning Navoiy viloyatida tashkil etilishi, hududning iqtisodiy qulayligidan dalolat beradi. Navoiy Erkin iqtisodiy zonasi Karmana tumanining 645 gektar hududda joylashgan bo`lib, u Xalqaro aeroport, xalqaro temiryo`l va avtomobil magistral yo`li infrastrukturasida joylashgan.

**Erkin iqtisodiy zona** – mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma`muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti

boʻlgan maxsus ajratilgan hudud hisoblanadi<sup>1</sup>. Bundan koʻrinib turibdiki, hududning erkin iqtisodiy zonasi asosan keng koʻlamdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqish va eksport qilish bilan shugʻullanadi.

Respublikamizda erkin iqtisodiy zonalar bilan hamohang maxsus iqtisodiy zonalar ham shakllantirilishi qator siyosiy nizom, farmon va qonunlarda aks ettirildi. Oʻzbekiston Respublikasining Maxsus iqtisodiy zonalar toʻgʻrisida<sup>2</sup>gi Qonunning 1-bob 3-moddasida maxsus iqtisodiy zonaga - tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalarini va mahalliy investitsiyalarni yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega boʻlgan hudud – deb taʼrif berilgan.

Yuqorida berilgan har ikkala taʼrifga koʻra erkin iqtisodiy zona yoki maxsus iqtisodiy zonalar tashkil qilingan mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish orqali yuqori texnologiyali raqobatbardosh ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyish bilan eksportbop va import oʻrnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish asosida, mazkur mintaqalardagi aholini ish bilan taʼminlash orqali ularning turmush darajasini yuksaltirish imkonini beradigan alohida huquqiy rejimga ega boʻladigan chegarali hudud hisoblanadi.

Oʻzbekistonning yangi iqtisodiy faoliyatini takomillashtirish, kichik va oʻrta biznesni rivojlanayotganligi, mamlakatimizda sanoatning hududiy tashkil etilishini erkin iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi kabi yangi shakllari vujudga kelishiga sabab boʻldi. Bugungi kunda mamlakatimizda 14 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda. Bular “Navoiy”, “Angren”, “Jizzax”, “Urgut”, “Gʻijduvon”, “Qoʻqon” va “Xazorasp” erkin iqtisodiy zonalarida 62 ta loyiha amalga oshirilgan. Farmasevtika sohasiga ixtisoslashgan “Nukus-farm”, “Zomin-farm”, “Kosonsoy-farm”, “Sirdaryo-farm”, “Boysun-farm”, “Boʻstonliq-farm”, “Parkent-farm” kabi 7 ta yangi erkin iqtisodiy zonani rivojlantirish boʻyicha izchil ishlar olib borilgan. Buning natijasida koʻplab kimyo-laboratoriyalar faoliyati natijasida koʻplab tabiiy farm mahsulotlarini ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyildi.

Hozirgi kunda “Navoiy Erkin iqtisodiy zonasi”da Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Italiya, Xitoy xalq respublikasi, Birlashgan Arab Amirliklari, Hindiston, Singapur va Rossiya davlatlari bilan istiqbolli loyihalar amalga oshirilmogʻda. Jumladan, “Telekom

---

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy zonalar toʻgʻrisidagi” Qonuni 25 aprel 1996 yil.

Innovations” mas’uliyati cheklangan jamiyat qo’shma korxonasi (Singapur, Xitoy), “TV tyunerlar, ADSL modemlar va Home Gate way” qurilmalarini ishlab chiqaruvchi tashkilot, “UzEraeCabel” mas’uliyati cheklangan jamiyat qo’shma korxonasi (Koreya respublikasi), “Avtomobillar uchun kabel va akkumulyator jgutlarini ishlab chiqaruvchi”, “UzEraeAlternator” mas’uliyati cheklangan jamiyat qo’shma korxonasi (Koreya respublikasi), “Avtomobillar uchun generator va compressor” ishlab chiqaruvchi tashkilotlar faoliyat yuritmoqa.

Shu bilan birga korxonalarda tayyorlanayotgan yuqori kuchlanishga chidamli kabel similar ”National Plast” mas’uliyati cheklangan jamiyat qo’shma korxonasi Italiya hamkorligida ishlab chiqariladi. ”GREN LINE” mas’uliyati cheklangan jamiyat qo’shma korxonasida alyumin profil va alyumin mahsulotlari hamda O`zbekiston - Janubiy Koreya qo’shma korxonasida esa avtomobillar uchun yuqori bosimli gazballonlar, emal simlar, statyor, rotor, dori-darmonlar, mobil telefonlar, noutbuk, smartfon va boshqa elektrotexnika mahsulotlari, tibbiy buyumlar, mashinasozlik, avtomobilsozlik, qurilish materiallari, kimyo va neft kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish yo`lga qo`yilgan. Shuningdek, qurilish ishlari va gipsakartonlarni montaj qilishda qo`llaniladigan turli ashyolar, polipropilin quvurlar hamda ularni ulashda foydalaniladigan qismlar, ttransport vositalari uchun tormoz qismlari, quyosh issiqlik panellari, tikuv mashinalari, maishiy texnika jihozlari, gilamlar ishlab chiqarilmoqda. Yuqorida ishlab chiqarilgan mahsulotlar MDH davlatlari, Ukraina, Polsha, Chexiya, Germaniya, Kanada, AQSh va boshqa xorijiy davlatlarga eksport qilinmoqda.

Ma`lumotlariga ko`ra Navoiy Erkin iqtisodiy zonasida 2009-2016 yillarda 22 ta loyiha amalga oshirilgan bo`lib, 124 mln. AQSh dollari miqdorida foyda ko`rgan. Bu holat o`sha davrda korxonalar sonining qisqaligi bilan izohlanadi. 2017-2018 yillarda MDH va jahon mamalkatlarining sohalarga kiritgan investitsiyalari natijasida 35 ta loyiha amalga oshirildi hamda buning natijasi yuqori ko`rsatkichga ega bo`ldi.

2020-2021 yillarda esa ushbu davr ichida erkin iqtisodiy zonada amalga oshirilgan lohihalar sonining yana 12 taga ko`payganligi bu ishlab chiqarish hajmining oshganligidan dalolat beradi. 2020-2022 yillarda loyihalar sonining jadal ortishi va o`z navbatida korxonalar kelajak istiqboli ko`rsatkichlarini oshishiga sabab bo`ladi. Shu bilan birga hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy sohalarni rivojlantirishga qaratilgan

strategiyalar muhim sanalib hududlarda faoliyat yuritayotgan iqtisodiy zonalarning optimallashtirishini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yilda Navoiy viloyatidagi tashrifi munosabati bilan hudud to'liq erkin iqtisodiy zonaga aylantirilishi e'tirof etildi. Bunga binoan **“Navoiy viloyatini innovatsion, yuqori texnologiyalarga asoslangan, eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosadigan ishlab chiqarishlar uchun erkin iqtisodiy zona sifatida belgilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi** 15.05.2019 yil 5719-sonli Prezident Farmoni e'lon berildi.

Ushbu farmon 2030 yil 1-yanvarga qadar, keyinchalik belgilangan tartibda muddatini uzaytirish imkoniyati bilan quyidagilarni o'z ichiga oladi: Navoiy viloyati ishlab chiqarish salohiyatidan kompleks, samarali foydalanish, hududda yirik logistika markazini yaratish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va Navoiy erkin iqtisodiy zona ishtirokchisi bo'lgan korxonalariga Yer, daromad, yuridik shaxslarning mol-mulkiga, kichik korxonalar uchun yagona soliqlar kiritilgan investitsiya hajmiga qarab muddati belgilab qo'yildi.

1-jadval

**Navoiy viloyatining tashqi iqtisodiy aloqalari (tashqi savdo eksporti)**

Hamkor davlatlar	2010 yil	2015 yil	2020 yil	2010-2020 yillarda o'zgarishlar indeksi
AQSh	28736,1	1276,8	280,7	1,0
Buyuk Britaniya(Angliya)	50823,2	355,3	572,3	1,1
Koreya Respublikasi	34894,0	9068,2	229,2	0,7
Birlashgan Arab Amirliklari	23899,9	2249,4	1538,8	6,4
Gruziya	1280,3	6004,4	125,7	9,8
Italiya	281,5	5,6	50,4	17,9
Latviya	1167,3	305,3	240,7	20,6
Singapur	18004,1	1841,9	6627,1	36,8
Qozog'iston	13665,7	9798,1	8848,1	64,7
Turkmaniston	24802,5	11808,7	16053,7	64,7
Fransiya	63297,0	134600,2	78258,7	123,6
Yaponiya	464,1	52,9	851,6	183,5
Rossiya Federatsiyasi	17400,4	49215,4	34878,0	200,4
Ukraina	623,4	4539,8	2558,0	410,3
Turkiya	6231,6	5011,0	29517,3	473,7
Qirg'iziston	815,7	1568,7	37111,3	4549,4

**Jadval:** Navoiy statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Navoiy erkin iqtisodiy zonasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportga bevosita yo'naltirilganligi, qo'shni mamlakatlar, MDH davlatlari hamda Yevropaning bir qator mamlakatlariga ekport qilish orqali davlatlararo hamkorlikni kengaytirish, o'zaro do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlashga qaratilgan. Statistik ma'lumotlarga bo'yicha oladigan bo'lsak, eng ko'p eksport Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Ukraina, Yevropa davlatlaridan Fransiya va Italiya bilan, qo'shni davlatlardan Bu holatni korxonaning iqtisodiy samaradorligi hamda uning ishlab chiqarish qobiliyati belgilaydi. Navoiy viloyati sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar yuqori darajada qo'shni davlatlarga ya'ni Qirg'iston hamda Tojikiston respublikalariga eksport qilingan.

2-jadval

**Navoiy viloyatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari**

	<b>O'lchov birligi</b>	<b>2010 y.</b>	<b>2015 y.</b>	<b>2020 y.</b>
<b>Yalpi hududiy mahsulot</b>	mlrd.so`m	4325,6	10545,2	49742,2
	O`shish sur`ati,% da	103,9	103,8	107,1
<b>Sanoat mahsuloti</b>	mlrd.so`m	4038,5	9286,9	65084,9
	O`shish sur`ati,% da	99,6	103,4	109,1
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar</b>	mlrd.so`m	1741,8	1809,1	15683,4
	O`shish sur`ati,% da	2,5	90,7	77,1
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	mlrd.so`m	926,0	802,5	1312,3
	O`shish sur`ati,% da	108,9	81,0	71,5
<b>Eksport</b>	mlrd.so`m	553,4	441,4	426,5
	O`shish sur`ati,% da	112,1	100,2	117,5
<b>Import</b>	mlrd.so`m	372,6	361,0	885,8
	O`shish sur`ati,% da	104,5	65,7	60,2

**Jadval:** Navoiy statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Yuqoridagi javdal ma'lumotiga ko'ra viloyat mavqeini aniqlab beruvchi ko'rsatkich YaHM oldingi yillarga ko'ra 2020 yilda ham o'sish kuzatilgan. Bu holar ijtimoiy hayotda Covid-19 epidemiyasi va karantin holati sababli sanoat korxonalarida ham iqtisodiy samaradorlik o'z mavqeini saqlab qolgan. Ushbu davrda sanoat mahsulotlari hajmi ortib, eksportbop mahsulot hajmi oshgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, viloyat korxonalari o'rtasida sanoat kooperatsiyalarini yaratish, mahalliy xom-ashyo materiallariga asoslangan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, klasterlarini joriy etish, keng imkoniyatlar, ilg'or texnologilar, bugungi kunda tadbirkorlarga yaratib berilayotgan imtiyozlardan samarali foydalanish hududning iqisodiy mavqeini belgilab beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O`zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy zonalar to`g`risidagi” Qonuni 25 aprel 1996 yil.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF 5719 15.05.2019 y
3. [www.navstat.uz](http://www.navstat.uz) sayti ma`lumotlari